

Asalarining yashirin dushmani aniqlandi

OAV ma'lumot berishicha, joriy yilda asalarilarning ommaviy nobud bo'lishi kuzatilmoqda. Eng tahlikali vaziyat Farg'ona vodiysida kuzatilib, bu yerda pespublikadagi barcha asalari oilalarining qariyb 70-80 foizi to'plangan.

Taxminlardan biriga ko'ra, asalari oilalarining nobud bo'lishiga paxta dalalariga kuchli kimyoviy moddalar bilan ishlov berish sabab bo'lgan. Asalarichi Ravshanbek Hamidovning aytishicha, "Ayniqsa, kuchli zaharli preparatlar Qo'shtepa, Yozyovon va Oltiariq tumanlarida qo'llaniladi. Hozirgacha 100 ga yaqin asalari oilasini yo'qotdik".

Biroq, shuni ta'kidlash joizki, asalarilarning ommaviy nobud bo'lishiga olib keladigan sabablaridan biri bu, birinchi navbatda virusli kasalliklar hisoblanadi. Hozirgi kungacha dunyoda asalarini (*Apis mellifera*) RNK sidan 20 ga yaqin virus aniqlangan.

Toshkent Davlat Agrar Universiteti, Umumiy zootexniya va veterinariya kafedrasida va Janubiy Koreyani Andong Milliy Universitetidagi olim hamkasblari bilan hamkorlikda o'tkazgan tadqiqot natijalari asosida, O'zbekiston asalarilari populyatsiyasida 9 xil virus aniqlangan bo'lib, ulardan qanot deformatsiyasi virusi (DWV) asalarilarning o'tkir falaji (ABPV) va o'limga olib keluvchi falaj virusi (ALPV) keng tarqalgan.

Ushbu muammoli vaziyatni tezkorlik bilan o'rganib, tahlil qilish maqsadida, O'zR FA Genomika va bioinformatika markazi olimlari tomonidan Farg'ona viloyatidan tirik, chala o'lik va o'lik holdagi asalari namunalari olib kelindi va ularda molekulyar genetik tahlil o'tkazildi.



Natijada, chala o'lik va o'lik asalari namunalari Qanot deformatsiyasi virusi (DWV) aniqlandi. Bu virus RNKli virus bo'lib, avval asalarilarning umumiy iRNK ajratilib, kDNKga aylantirildi (RT bosqichi). So'ngra, maxsus praymer yordamida polimer zanjir reaksiyasi (PZR) amalga oshirildi hamda gel elektroforez yordamida natijalar tasdiqlandi.

Olimlarning ma'lumotlariga ko'ra, ushbu virus asalarilarning keng tarqalgan yuqumli agenti bo'lib, ko'pincha sog'lom oilalarda yashirin (latent), ya'ni uyqu holatida bo'ladi. Atrof-muhitning stress omillari

paydo bo'lganda, masalan, kanalar bilan zararlanish, bakterial infeksiyalar, ifloslanish va qishloq xo'jaligi sohasida kimyoviy moddalar hamda insektitsidlardan odatiy foydalanish natijasida ushbu virusning faol holatga o'tishi kuzatilishi mumkin, bu esa asalarilarning ommaviy nobud bo'lishiga olib keladi.

Shu sababli, asalarilarning ommaviy nobud bo'lishining asl sababini aniqlash uchun monitoring o'tkazilib, nobud bo'lgan asalari namunalari ustida keng ko'lamli molekulyar-genetik tadqiqotlar olib borish zarur. Bu esa, kelajakda bu kabi kasalliklarning oldini olish uchun asos yaratadi va asalari oilalarining ommaviy nobud bo'lishidan asrab, asalarichilarning yo'qotishlarini kamaytiradi.